D. Skarlatti. F-p uchun sonata



30.

I. S. Bax. Organ fugasi



31. Lento ma non troppo

F. Shopen. «Etyud»



32. Andante

G. F. Gendel. Kantata



33. Lento

E. Grig. «O'rmon sukunati»



34. Andante

D. Chimaroza. Sonata



35. Allegretto alla marcia

N. Rimskiy-Korsakov. «Shoh Sulton haqida ertak» operasidan



36. Adagio comodo assai

M.Glinka. «Ruslan va Lyudmila»  
operasidan



37. Osoyishta

Qozoq xalq qo'shig'i



38. Andantino

M.Balakirev. «Alla»



39. Moderato

F. Shopen. Vals



40. Andantino e semplice

N. Myaskovskiy. 16-simfoniya



**41. Moderato**

Rus xalq qo'shig'i

**42. Tez**

Ukrain xalq qo'shig'i

**43. Allegro**

Rus xalq qo'shig'i

**44. Shoshmasdan**

Belorus xalq qo'shig'i



5. Quyidagi kuylarda: a) major va minor ladining tabiiy, garmonik va melodik turlarini; b) ularning turg'un va noturg'un pog'onalarini aniqlang; d) kuyni major yoki minorning u yoki bu turiga mansub ekanligini bilish mumkin bo'lgan alohida ajralib turuvchi lad belgilarini ko'rsating.

1. Sekin

I. Hamroyev. «Onam xotirasi»



2. Sekin

B. Giyenko. «Toy». Bolalar qo'shig'i



3.

Ukraincha qo'shiq



4. Birmuncha tez

Qirg'iz xalq qo'shig'i



5. Moderato

X.V.Glyuk. «Armida» operasidan



6. Moderato

M.Glinka. Romans. «Ne iskushay»



7. Andante

S.Prokofyev. Fortepiano uchun 3-konsert



8. Andante con moto

X.V.Glyuk .«Armida» operasidan



9. Moderato

I.Matteson. Sarabanda



10. Andante

Rus xalq qo'shig'i



11. Birmuncha sekin

F. Shubert. «Qariyalar»



12.

O'zbek xalq qo'shig'i



13. Allegretto

N. Rimskiy-Korsakov. «Shoh kelini» operasidan



14. Tez

Ukrain xalq qo'shig'i





15. Moderato sostenuto

M.Ippolitov-Ivanov.  
«Ozarboyjon navolari»

*pp*

*p*

*mf*

*p* *p*

16. Andante cantabile

P. Chaykovskiy. Barkarola

17. Poco allegretto

Belorus xalq qo'shig'i

18. Andantino

I. S. Bax. Klavesin uchun syuita

*pp*

## 19. Allegro

A.Dargomijskiy. «Inezilya, men bu yerdaman»



## 20. Maestoso

E.Grig. Norvegcha qo'shiq




## 21. Adagio

D. Shostakovich. Kvintet



## 22. Largo

Qozoq xalq qo'shig'i



## 23. Adagio

O'zbek xalq qo'shig'i



## 24. Sekin

Tojik xalq qushig'i



## 25. Og'ir

J. Kenjayev. «Oy botganda»



## 26. Sekin

S. Jo'rayev. «Pomir qiziga»



## 27. Lento

Yu. Shaporin. «Kulikova maydonida»,  
oratoriya-kantatasidan «Alla»

28. Shoshmasdan

Rus xalq qo'shig'i



29. Andante

M.Glinka. «Fin qo'ltig'i»



30. Allegro moderato

A. Dargomijskiy. Kvintet



31. Moderato

F.Mendelson. «Iliya»




32. Lento

D. Shostakovich. Kvintet





33. **Andante non troppo** I.S.Bax. Skripka va f-no uchun sonata



34. **Andante mosso** M.Glinka. «Samoviy deya atama uni»



35. **Adagio** A. Korelli. Skripka uchun sonata, or.5 №6



36.

Gruzin xalq qo'shig'i



37. Shoshmasdan

Rus xalq qo'shig'i



38. Appena piu mosso

S.Prokofyev. «Poruchik Kije» syuitasidan



39. Allegretto

N. Rimskiy-Korsakov.  
«Yangi yil oqshomi» operasidan

40. Andantino

N. Rimskiy-Korsakov. «Qorqiz» operasidan



## 41. Molto andante e semplice

E. Grig. «Soqchi qo'shig'i»



42.

Ukrain xalq qo'shig'i



43. Adagio

N. Rimskiy-Korsakov.  
«Pskovityanka» operasidan

6. Quyidagi tovushlar tegishli bo'lgan diatonik major va minorning barcha tonalliklarini sanab bering.

E s l a t m a: Tonalliklarni aniqlaganda majorning ikki turi (tabiiy va garmonik) va minorning uch turi (tabiiy, garmonik va melodik) ni e'tiborga olish lozim.

do; do#; do♭; do×; do♯;

fa; fa#; fa♭; fa×; fa♯;

re; re#; re♭; re×;

sol; sol#; sol♭; sol×; sol♯;

mi; mi#; mi♭; mi♯♭; mi♯;

lya; lya#; lya♭; lya♯♭; lya♯


si; si#; si♭; si♯♭; si♯;

7. Quyidagi juft tovushlar diatonik major va minorning qaysi tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang:

a)



b)



d)



8. Quyidagi kuy parchalari qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang:







9. Quyidagi akkordlar qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang.

E s l a t m a: Akkordlar tonalligini, ularning tovushlar tarkibigi qarab aniqlang:

10. Quyidagi kuy va kuy parchalari qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang:

E s l a t m a: Bu kuylarning xususiyati shundaki, ularning deyarli barchasi tonika bilan tugamaydi. Lad tonikasini aniqlash talab etiladi.

### 1. Ohangdor

J. Kenjayev. «Buvam qo‘shig‘i»

2. Sekin, ohangdor

K. Jabborov. «Assalom»



3. Sekin

O'zbek xalq qo'shig'i. «Bozorga boraymi, qizim»



4. Chaqqon

O'zbek xalq qo'shig'i. «Mehnat»



5. Juda sekin

O'zbek xalq qo'shig'i «Uch patir»



6. Sekin


N. Hasanov. «Sanobar»





7. Tez

Rus xalq qo'shig'i



8. Andante

Ukrain xalq qo'shig'i



9. Allegro ma non troppo

L. Betxoven. 6-simfoniya



10. Moderato

L. Bokkereni. Menuet



11. Allegro assai ma pomposo

F. E. Bax. Sonata



12. Tez

J. Ramo. Rigodon



13. Poco piu animando

P. Chaykovskiy. «Bo'ron»



14. Larghetto

L. Betxoven. 2-simfoniya



15. Allegro

P. Chaykovskiy. «Uyqudagi go'zal» baletidan



16. Kuychan

Rus xalq qo'shig'i



17. Andantino

Ukrain xalq qo'shig'i



18. Allegro

L. Betxoven. Kvartet, or. 131



19. Allegro moderato

G. Gendel. Allemanda



20. Vivace

Ukrain xalq qo'shig'i



21. Largo

A. Korelli. Skripka uchun sonata



22. Con moto

E. Grig. «Xalq kuyi», or. 12 №5



23. Allegro

V. Motsart. «Sehrli nay» operasidan



24. Moderato

M. Glinka. «To'rg'ay»



25. Andante

P. Chaykovskiy. «Yevgeniy Onegin» operasidan



26. Moderato

Rus xalq qo'shig'i



27.

L. Kerubini. Kanon



28. Larghetto

I. Brams. Preljudyiya



29. Andantino

Ukrain xalq qo'shig'i





30. Birmuncha sekin

Rus xalq qo'shig'i



31. Allegretto

N. Rimskiy-Korsakov. «Yangi yil oqshomi»  
operasidan



32.

Tirol xalq qo'shig'i



33. Moderato con moto

P. Chaykovskiy. «Yevgeniy Onegin»  
operasidan



34. Allegro vivace

I. S. Bax. Fortepiano uchun fuga





35. Andante

Chex xalq qo'shig'i



36. Tempo di mazurka

P. Chaykovskiy. «Yevgeniy Onegin»  
operasidan



37.

V. Jelobinskiy. «Imeninalar» operasidan



38. Moderato

I. N. Gummel. «La bella capriciosa»





## 39. Allegro moderato

P. Chaykovskiy. «Yevgeniy Onegin»



operasidan




## 40. Andante moderato

Ukrain xalq qo'shig'i



## 41. Moderato

M. Ravel. Fortepiano uchun sonata



## 42. Lento

A. Skryabin. Or. 11, № 15



## 43. Tetik

Qozoq xalq qo'shig'i



## 44. Allegro

L. Betxoven. F-p uchun sonata., or. 31, №1



## 45. Allegro


G. Gendel. F-p uchun XIV syuita

## 46. Vivace

J. Verdi. «Rigoletto» operasidan



11. Quyidagi musiqa asarlari bo'laklari major yoki minorning qaysi tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang:



*Yozma mashq va vazifalar*

1. 111-124 betlarda berilgan kuylarni ladini aniqlang va quyidagilarni yozing:

- a) ladning tonikasini belgilagan holda kuyning tovushqatori;
- b) tonikani belgilagan holda kuyning gammasi;
- d) ladning turg'un va noturg'un pog'onalari;

**E s l a t m a:** Kuyning tovushqatorini yozish uchun, uning eng past tovushini birinchi qo'yib, barcha boshqa tovushlarni balandligiga qarab, tartib bilan undan yuqoriga joylashtirib chiqish zarur.

Berilgan kuyning gammasini yozish uchun tovushlarni balandlik tartibi bo'yicha bir oktava hajmida pastki tonikadan yuqori tonikagacha joylashtirish kerak.

Turg'un pog'onalarni oq, noturg'un pog'onalarni esa qora notalar bilan yozing.

Noturg'un pog'onalarni turg'un pog'onalarga yechilishini strelkalar bilan ko'rsating. Masalan:

**Tez**




Rus xalq qo'shig'i



2. 111-114 betlardagi kuylarni ko'chiring, bunda alteratsiya belgilarini notalar oldiga emas, balki kalit yoniga yozing.

3. Quyidagi noturg'un ohangdoshliklarni qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang va tortilishi bo'yicha turg'un ohangdoshga yeching.

E s l a t m a: Agarda ohangdosh o'zining tovush tarkibi bo'yicha bir nechta major va minor tonalliklariga tegishli bo'lsa, ularni ana shu tonalliklarning barchasida yeching. Masalan:



4. Quyidagi ohangdoshliklarni ko'rsatilgan tonalliklarda turg'un ohangdoshlarga yechish uchun ularning engarmonik ravishda almashtirish mumkin bo'lgan variantini toping:

a)      b)      d)      e)      f)      g)      h)      i)



*Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. №3 vazifani fortepianoda bajaring.
2. №4 vazifani fortepianoda bajaring.

## MAJOR VA MINOR INTERVALLARI

### 1. Tabiiy major va tabiiy minor intervallari

#### *Takrorlash uchun savollar*

1. Qaysi major va minor ladiga diatonik lad deyiladi?
2. Qanday major va minor gammalariga diatonik gamma deyiladi?
3. Qanday intervallarga diatonik intervallar deyiladi?
4. Barcha diatonik intervallarni aytib bering.
5. Tabiiy majorda tonikadan barcha boshqa pog'onalarga yuqoriga tomon, qanday intervallar hosil bo'ladi?
6. Tabiiy minorda-chi?
7. Tabiiy majorda nechta (qaysi pog'onalarda) sof primalar, kichik sekundalar, katta sekundalar, kichik tertsiyalar, katta tertsiyalar, sof kvartalar, orttirilgan kvartalar, sof kvintalar, kamaytirilgan kvintalar, kichik sekstalar, katta sekstalar, kichik septimalar, katta septimalar, sof oktavalor bor?
8. Tabiiy minorda-chi?
9. Garmonik minorda-chi?

#### *Yozma mashq va vazifalar*

1. Kvinta davrasi tartibi bo'yicha tabiiy majorning barcha tonalliklaridan: *kichik va katta sekundalar, kichik va katta tertsiyalar, sof va orttirilgan kvartalar, sof va kamaytirilgan kvintalar, kichik va katta sekstalar, kichik va katta septimalarni* yozib oling.

E s l a t m a: Tonallikka tegishli bo'lgan alteratsiya belgilarini kalit yoniga emas, balki notalar oldiga qo'ying. Masalan:

Katta tertsiyalar:

C-dur                      G-dur                      D-dur                      va h.k.

I                      IV                      V

2. 1-vazifani tabiiy va garmonik minorda ham bajaring.
3. Tabiiy major va tabiiy minorning quyidagi nomdosh tonalliklaridan barcha katta intervallarni yozib oling:

*D-dur, As-dur, G-dur, Es-dur, Fis-dur.*  
*d-moll, as-moll, g-moll, es-moll, fis-moll.*

4. Tabiiy major va tabiiy minorning quyidagi nomdosh tonalliklaridan barcha kichik intervallarni yozib oling:

*F-dur, E-dur, B-dur, C-dur, G-dur.*  
*f-moll, e-moll, b-moll, c-moll, g-moll.*

5. Barcha kichik va katta intervallarni *sol, fa<sup>#</sup>, re, si<sup>b</sup>, mi, sol<sup>#</sup>, lya, mi<sup>b</sup>* tovushlaridan tuzing. Tuzilgan intervallarni qaysi major tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang va belgilab qo'ying.

6. Garmonik minor va garmonik majorning quyidagi tonalliklaridan barcha orttirilgan kvartalar va kamaytirilgan kvintalarni yozib oling:

*B-dur, fis-moll, As-dur, g-moll, A-dur, g-moll.*  
*D-dur, b-moll, E-dur, dis-moll, C-dur, a-moll.*

7. Orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarini *fa, lya, re, si, mi, do, sol* tovushlaridan tuzing. Tuzilgan intervallarni qaysi major tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang va belgilab qo'ying.

8. Tabiiy major va garmonik minorning quyidagi nomdosh tonalliklarida tonika, subdominant va dominantadagi tertsiyalarni yozib oling:

*C-dur, D-dur, B-dur, G-dur, Fis-dur, A-dur,*  
*c-moll, d-moll, b-moll, g-moll, fis-moll, a-moll.*

9. Tonika sifatida *sol, re, lya, do, si, fa<sup>#</sup>, mi<sup>b</sup>* tovushlarni olib, yuqoriga va pastga tomon, tabiiy major va nomdosh tabiiy minor uchun umumiy bo'lgan intervallarni yozing.

10. Quyidagi intervallar major va minorning qaysi tonalliklarida va ularning qaysi pog'onalarida uchrashini aniqlang va belgilab qo'ying:

*re-fa, fa-re<sup>b</sup>, mi<sup>b</sup>-re<sup>b</sup>, mi-lya<sup>#</sup>, do-sol<sup>b</sup>,*  
*sol-fa<sup>#</sup>, si-sol<sup>#</sup>, fa<sup>#</sup>-mi, sol<sup>b</sup>-si<sup>b</sup>, re<sup>#</sup>-lya,*  
*fa-lya, si<sup>b</sup>-do, mi<sup>b</sup>-do, sol-do, do-mi<sup>b</sup>,*  
*do<sup>#</sup>-lya, lya<sup>b</sup>-fa, lya-sol<sup>#</sup>, si<sup>#</sup>-fa<sup>#</sup>, mi<sup>b</sup>-fa.*

### *Og'zaki mashqlar*

1. Tabiiy major va tabiiy minorning I-II, I-III, I-IV, I-V, I-VI, I-VII pog'onalari orasida hosil bo'ladigan intervallarni aniqlang.

2. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta kichik sekunda bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

3. Quyidagi tonalliklardagi kichik sekundalarni tartib bilan ayting:

- a) *Do major, Sol major, Fa major, Re major, Si major,*  
*lya minor, mi minor, re minor, si minor, sol minor,*  
b) *Fa major, Mi major, Lya major, Do major, Si major,*  
*fa-minor, mi minor, lya minor, do minor, si minor.*

4. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta katta sekunda bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

5. Quyidagi tonalliklardagi katta sekundalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Lya major, Fa major, Mi major, Si major,*  
*do minor, lya minor, fa minor, mi minor, si minor.*

6. Kvinta davrasi tartibida barcha major, tabiiy va garmonik minor tonalliklaridagi kichik sekundalarni ayting.

7. Quyidagi sekundalar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarini tartib bilan ayting:

- a) *sol#-lya, fa#-sol, mi-fa, do#-re, re-mib, sol-lyab, lya#-si;*  
b) *do-re, mi-fa#, mib-fa, lyab-si#, fa#-sol#, reb-mib, sol-lya.*

8. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta katta septima bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

9. Quyidagi tonalliklardagi katta septimalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Mi major, Sol major, Si major, Fa major,*  
*do minor, mi minor, sol minor, si minor, fa minor.*  
*garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik*

10. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta kichik septima bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

11. Quyidagi tonalliklardagi kichik septimalarni tartib bilan ayting:

*Lya major, Sib major, Do# major, Re major, Fa# major,*  
*lya minor, sib minor, do# minor, re minor, fa# minor.*  
*garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik*

12. Quyidagi septimalar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarini tartib bilan ayting: *do-si, sol-fa#, lyab-solb, re-do#, re-do,*  
*solb-fa, fa-mib, si-lya#, lyab-sol, fa#-mi#, do-sib, mi-re#.*

13. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nech'ta kichik tertsiya bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?



14. Quyidagi tonalliklardagi kichik tertsiyalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Lyā major, Re major, Si major, Mīb major, Lyāb major, do minor, lyā minor, re minor, si minor, mīb minor, lyāb minor.*  
garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik

15. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta katta tertsiya bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

16. Quyidagi tonalliklardagi katta tertsiyalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Sol major, Fa major, Mi major, Sīb major, Fa# major, do minor, sol minor, fa minor, mi minor, sīb minor, fa# minor.*  
garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik

17. Quyidagi tertsiyalar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarini tartib bilan ayting: *mi-sol, sīb-re, do-mīb, do#-mi#, fa-lyā, sol#-si, sol-sīb, fa#-lyā#, reb-fa, sīb-reb, lyā-do, mi-sol#.*

18. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta katta seksta bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

19. Quyidagi tonalliklardagi kichik sekstalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Lyā major, Mi major, Lyāb major, Fa major, Re major, do minor, lyā minor, mi minor, lyāb minor, fa minor, re minor,*  
garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik

20. Quyidagi tonalliklardagi katta sekstalarni tartib bilan ayting:

*Do major, Lyā major, Do# major, Si major, Sol major, Mīb major, do minor, lyā minor, do# minor, si minor, sol minor, mīb minor,*  
garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik garmonik

21. Quyidagi sekstalar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarini tartib bilan ayting: *do-lyā, mi-do#, lyā-fa, mīb-do, re-sīb, sol#-mi, lyā-fa#, do-lyāb, sol-mi, lyā#-fa#, re#-si, sīb-sol.*

22. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta sof kvarta va sof kvinta bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?


23. Tabiiy major, tabiiy va garmonik minorda nechta orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta bor va ular qaysi pog'onalarda joylashgan?

24. Kvinta davrasi tartibida barcha major, tabiiy va garmonik minor tonalliklaridagi orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvintalarni ayting.

25. Quyidagi orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvintalar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarini tartib bilan ayting: *do-fa#, mi-sīb, do#-sol, fa#-si#, lyāb-re, lyāb-mi, mi#-si, sol#-re, fa-si, mīb-lyā, solb-do, re#-lyā, lyāb-re, reb-sol, re-sol#, do-solb.*

26. Quyidagi intervallar major va minorning qaysi tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:

a)



b)



d)



### *Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. 127-129 betlarda berilgan №№3, 9, 11, 14, 16, 19, 20 vazifalarni fortepianoda bajaring.

## **2. Garmonik minor va garmonik majorning orttirilgan va kamaytirilgan intervallari**

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Minorda VII pog'onaning ko'tarilishi natijasida qanday orttirilgan va kamaytirilgan intervallar (qaysi pog'onalarda) hosil bo'ladi?

2. Garmonik minorning qaysi pog'onalari orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvinta va kamaytirilgan kvarta intervallarini hosil qiladi?

3. Garmonik va melodik minorda qancha (qaysi pog'onalarda) orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallari bor?

4. Garmonik minorning VII pog'onasida qanday kamaytirilgan intervallar tuziladi?

5. Garmonik minorning VI pog'onasida qanday orttirilgan intervallar tuziladi?

6. Majorda VI pog'onaning pasaytirilishi natijasida qanday orttirilgan va kamaytirilgan intervallar (qaysi pog'onalarda) hosil bo'ladi?

7. Garmonik majorning qaysi pog'onalari orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvinta va kamaytirilgan kvarta intervallarini hosil qiladi?

8. Garmonik majorda qancha (qaysi pog'onalarda) orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallari bor?

9. Garmonik majorning VI pog'onasida qanday orttirilgan intervallar tuziladi?
10. Garmonik majorning VII pog'onasida qanday kamaytirilgan intervallar tuziladi?
11. Garmonik majorning III pog'onasida qanday kamaytirilgan intervallar tuziladi?
12. Garmonik major va garmonik minorning orttirilgan va kamaytirilgan intervallaridan qaysilari xromatik intervallar hisoblanadi? Nima uchun?


### *Yozma mashq va vazifalar*

1. Kvinta davrasi tartibida, garmonik minorning va garmonik majorning barcha tonalliklarida orttirilgan sekunda intervalini yozib oling.
2. Kvinta davrasi tartibida, garmonik minorning va garmonik majorning barcha tonalliklarida orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarini yozib oling.
3. Quyidagi tovushlardan orttirilgan sekunda intervalini tuzing va bu interval tegishli bo'lgan minor va major tonalliklarini aniqlang: *lyab, sib, lya, re, sol, mi<sup>b</sup>, do, reb, sol<sup>b</sup>, mi*.
4. Quyidagi tovushlardan kamaytirilgan septima intervalini tuzing va bu interval tegishli bo'lgan minor va major tonalliklarini aniqlang: *re, si, sol<sup>#</sup>, re<sup>#</sup>, lya, mi, si<sup>#</sup>, do<sup>#</sup>, lya<sup>#</sup>*.
5. Quyidagi tovushlardan orttirilgan kvinta intervalini tuzing va bu interval tegishli bo'lgan minor va major tonalliklarini aniqlang: *mi, lya, fa, re, sol, si, do, lyab, sib, mi<sup>b</sup>, reb, sol<sup>b</sup>*.
6. Quyidagi tovushlardan kamaytirilgan kvarta intervalini tuzing va bu interval tegishli bo'lgan minor va major tonalliklarini aniqlang: *sol, lya<sup>#</sup>, mi, si, lya, fa, re, fa<sup>#</sup>, do<sup>#</sup>, sol<sup>#</sup>*.

### *Og'zaki mashqlar*

1. Kvinta davrasi tartibida garmonik minorning va garmonik majorning barcha tonalliklarida orttirilgan sekunda intervalini ayting.
2. Kvinta davrasi tartibida garmonik minorning va garmonik majorning barcha tonalliklarida orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarini ayting.
3. Quyidagi intervallar major va minorning qaysi tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:





### *Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. Garmonik minor va garmonik majorning barcha diyezli va bemolli tonalliklarida quyidagi intervallarni chaling: ort.2, kam.7, ort.5, kam.4.

### **3. Dissonans intervallarning yechilishi**

#### *Takrorlash uchun savollar*

1. Ladning qanday intervallari turg'un hisoblanadi?
2. Ladning qanday intervallari noturg'un hisoblanadi?
3. Dissonans intervallar qanday bo'ladi? Konsananslar-chi?
4. Konsanans intervalning turg'unlikka qanday aloqasi bor?  
Dissonansni-chi?
5. Konsanans interval ladda noturg'un bo'lishi mumkinmi?
6. Intervalning yechilishi deb nimaga aytiladi?
7. Dissonans intervallar qanday yechiladi?
8. Noturg'un intervallar qanday yechiladi?
9. Ikkita noturg'un pog'onadan hosil bo'lgan noturg'un intervalning yechilishida ovozlar qanday harakat qiladi?
10. Bitta turg'un va bitta noturg'un pog'onadan hosil bo'lgan noturg'un intervalning yechilishida-chi?
11. Orttirilgan va kamaytirilgan intervalning yechilishida ovozlar harakatining qanday farqi bor?
12. Dissonans intervallar yechilishining qaysi usuliga garmonik yechilish deyiladi?
13. Major va minorning (tabiiy va garmonik) qaysi pog'onalari uchtonlik hosil qiladi?
14. Orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallari qaysi intervalga yechiladilar?
15. Orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervalining yechilishida ovozlar harakatining qanday farqi bor?
16. Sekunda va septima intervallari yechilishining turlarini sanab bering.
17. Orttirilgan sekunda va kamaytirilgan septima intervalining yechilishida ovozlar harakatining qanday farqi bor?

## Yozma mashqlar

1. Major va minorning quyidagi tonalliklarida faqat turg'un pog'onalardan hosil bo'ladigan barcha intervallarni yozing: *C-dur*, *a-moll*, *D-dur*, *f-moll*, *H-dur*, *e-moll*, *As-dur*.

Eslatma: № 1-10 vazifalar uchun. Turg'un pog'onalarni oq, noturg'unlarini esa qora notalar bilan yozing


2. Tabiiy major va tabiiy minorning quyidagi tonalliklarida faqat noturg'un pog'onalardan hosil bo'ladigan barcha intervallarni yozing va ularni yeching: *C-dur*, *a-moll*, *D-dur*, *f-moll*.

3. 2-vazifani garmonik minor va garmonik majorning quyidagi tonalliklarida ham bajaring: *F-dur*, *h-moll*, *E-dur*, *g-moll*.

4. Tabiiy major va garmonik minorning quyidagi tonalliklarida bitta turg'un va bitta noturg'un pog'onadan hosil bo'ladigan barcha noturg'un intervallarni tuzing va yeching: *A-dur*, *B-dur*, *fis-moll*, *c-moll*.

5. Tabiiy major, garmonik minor va garmonik majorning kvinta davrasi tartibidagi barcha tonalliklarida uchtonliklarni (orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta) yozib oling va ularni yeching.

6. Quyidagi intervallar qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang va ularni yeching:



7. Garmonik minor va garmonik majorning kvinta davrasi tartibidagi barcha tonalliklaridan quyidagi noturg'un intervallarni yozib oling va ularni yeching: orttirilgan sekunda; kamaytirilgan septima; orttirilgan kvarta; kamaytirilgan kvinta.

8. Garmonik minor va garmonik majorning orttirilgan va kamaytirilgan intervallarini (ort.2, kam.7, ort.5, kam.4, ort.4, kam.5) *re*, *mi*, *sol*, *do*, *fa*, *lya*, *fa#* tovushlaridan tuzing va ular tegishli bo'lgan tonalliklarni aniqlab, yeching.

9. 153-betning № 5 vazifasida berilgan intervallarni major va minorning qaysi tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang va ularni yeching.

10. Garmonik minor va garmonik majorning quyidagi tonalliklarida orttirilgan intervallarni (ort.2, ort.5, ort.4) yozing va ularni yeching:

*G-dur*, *b-moll*, *Fis-dur*, *cis-moll*, *As-dur*, *dis-moll*,  
*f-moll*, *E-dur*, *Des-dur*, *es-moll*, *H-dur*, *h-moll*.

11. Garmonik minor va garmonik majorning quyidagi tonalliklarida kamaytirilgan intervallarni (kam.7, kam.4, kam.5) yozing va ularni yeching:


*G-dur*, *As-dur*, *gis-moll*, *B-dur*, *fis-moll*,  
*g-moll*, *A-dur*, *dis-moll*, *Ges-dur*, *d-moll*.

12. Quyidagi intervallarni ko'rsatilgan tonalliklardagi mumkin bo'lgan yechilishlarini yozing:



C-dur, a-moll, H-dur, E-dur, As-dur, d-moll, G-dur, Fis-dur, f-moll  
 F-dur, Es-dur, cis-moll, as-moll, h-moll, D-dur, cis-moll, Es-dur  
 Des-dur, A-dur  
 b-moll, fis-moll

13. Quyidagi intervallar tegishli bo'lgan barcha major va minor tonalliklarida ularning mumkin bo'lgan yechilishlarini amalga oshiring:



14. Quyidagi dissonans intervallarni *d, a, es, gis, f, h, cis, as* tovushlarining har biridan tuzing va ularni garmonik ravishda yeching:

- orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta;
- katta va kichik sekundalar;
- katta va kichik septimalar.

### Og'zaki mashqlar

1. Quyidagi intervallar qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang va ularni yeching:

- do-re, lyab-sib, sol-lya#, fa#-sol#, sib-do#, mi-fax, mi#-fab, si-dox, solb-lya, fab-sol, do#-re;*
- lya#-sol, mi#-reb, reb-do, mi#-reb, reb-dob, do#-sib, fa#-mi#, sib-lya, do -si, do-sibb, fa-mibb;*
- sol-re#, lya-mib, reb-lya, do#-sol, fa-do#, solb-re;*
- lya-reb, sib-mi, reb-sola, fa-sib, dox-fa#, mi#-lya, reb-solb;*
- sib-mi, re-sola#, lya-mib, si-mi#, reb-lyab, lya#-mi.*

### Fortepianoda bajariladigan mashqlar

1. Tabiiy va garmonik major, tabiiy va garmonik minorning kvinta davrasi tartibidagi barcha tonalliklarida barcha orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta intervallarini tuzing va yeching.

2. Garmonik minor va garmonik majorning kvinta davrasi tartibidagi barcha tonalliklarida ort.2, kam.7, ort.5, kam.4 intervallarini tuzing va yeching.

3. Quyidagi intervallar qaysi major va minor tonalliklariga tegishli ekanligini aniqlang va ularni yeching:

a)



b)



v)



Three musical staves labeled a), b), and v). Each staff contains a sequence of intervals between notes on a five-line staff. Staff a) shows intervals in a major scale. Staff b) shows intervals in a minor scale. Staff v) shows intervals in a major scale, with some notes marked with an 'x'.

4. Quyidagi dissonans intervallarni garmonik ravisrda yeching:

a)



b)



Two musical staves labeled a) and b). Each staff contains a sequence of dissonant intervals between notes on a five-line staff. Staff a) shows dissonant intervals in a major scale. Staff b) shows dissonant intervals in a minor scale.

**AKKORDLAR**

**1. Uchtovushliklar**

*Takrorlash uchun savollar:*

1. Ohangdoshlik nima?
2. Akkord nima?
3. Uchtovushlik nima?
4. Uchtovushliklarning barcha turini sanab bering.
5. Katta yoki major uchtovushligi nima?
6. Kichik yoki minor uchtovushligi nima?
7. Orttirilgan uchtovushlik nima?
8. Kamaytirilgan uchtovushlik nima?
9. Uchtovushlikning har bir tovushi qanday ataladi? Nega shunday ataladi?
10. Uchtovushlikning asosiy tovushi yoki primasi nima?
11. Uchtovushlikning tertsiyasi nima?
12. Uchtovushlikning kvintasi nima?
13. Major uchtovushligini minor uchtovushligi qilish uchun va aksincha, minor uchtovushligini major uchtovushligi qilish uchun qanday o'zgarish qilish kerak?
14. Asosiy tovushdan yuqoriga tomon hisoblaganda:
  - a) major uchtovushligi;
  - b) minor uchtovushligi;
  - d) orttirilgan uchtovushlik;
  - e) kamaytirilgan uchtovushlik qanday intervallardan tuziladi?
15. Qaysi uchtovushliklar konsonans va qaysilari dissonans hisoblanadi? Nima uchun?
16. Orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushlik tarkibiga qanday dissonans intervallar kiradi?


*Yozma mashq va vazifalar*

1. Quyidagi tovushlarning har biridan major va minor uchtovushliklari tuzing:


|              |              |              |              |               |               |               |
|--------------|--------------|--------------|--------------|---------------|---------------|---------------|
| <i>do</i> ,  | <i>re</i> ,  | <i>mi</i> ,  | <i>fa</i> ,  | <i>sol</i> ,  | <i>lya</i> ,  | <i>si</i> ;   |
| <i>do#</i> , | <i>re#</i> , | <i>mi#</i> , | <i>fa#</i> , | <i>sol#</i> , | <i>lya#</i> , | <i>si#</i> ;  |
| <i>dob</i> , | <i>reb</i> , | <i>mib</i> , | <i>fab</i> , | <i>solb</i> , | <i>lyab</i> , | <i>si#b</i> ; |



2. Quyidagi har bir tovushni kvinta sifatida qabul qilib, major va minor uchtovushliklari yozing:



3. Quyidagi har bir tovushni tertsiya sifatida qabul qilib, major va minor uchtovushliklari yozing:



4. Quyidagi tovushlarning har biridan orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklari yozing: *do, sol, mi♭, fa♯, lya, si♭, do♯, re♭, mi, lyab.*

5. Quyidagi har bir tovushni avval tertsiya, keyin esa kvinta sifatida qabul qilib, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklari yozing:



6. Quyidagi har bir tovushni avval asosiy tovush, keyin tertsiya, undan keyin esa kvinta sifatida qabul qilib, uchtovushliklarning to'rtta turini (major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan) yozing: *do, do♯, do♭, re, re♯, re♭, mi, mi♯, mi♭...* va h.k.

### *Og'zaki mashqlar*

1. Quyidagi tovushlardan uchtovushliklarning to'rtta turini (major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan) tuzing: *do, do♯, do♭, re, re♯, re♭, mi, mi♯, mi♭...* va h.k.

2. *fa, si, sol, lya, mi, fa♯, lyab, sol♯, do♯, re♭, re, do* tovushlari tertsiya hisoblanganda:

- major uchtovushligi;
- minor uchtovushligi;
- kamaytirilgan uchtovushlik;
- orttirilgan uchtovushliklarning asosiy tovushini (primasi) va kvintasini ayting.

3. *re, fa♯, sol, si♭, lya, mi, do♯, re♯, lyab, sol♯, fa, mi♭* tovushlari kvinta hisoblanganda:

- major uchtovushligi;
- minor uchtovushligi;
- kamaytirilgan uchtovushlik;
- orttirilgan uchtovushliklarning asosiy tovushini (primasi) va tertsiyasini ayting.

#### 4. Uchtovushliklarning turini aniqlang:



#### *Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. Quyidagi tovushlardan uchtovushliklarning to'rtta turini (major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan) tuzing: *mi, sol#, sib, re, fa#, lyax, fa, reb, sol, mi#, do#*.

2. Yozma mashqlardagi 2, 3 va 5 vazifalarni fortepianoda bajaring.

## 2. Uchtovushliklarning aylanmalari

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Uchtovushlikning aylanmasi nima?
2. Uchtovushlik nechta aylanmaga ega?
3. Uchtovushlikning 1-aylanmasiga nima deyiladi? 2- aylanmasiga-chi?
4. Nima uchun uchtovushlikning 1- aylanmasiga sekstakkord, 2-aylanmasiga kvartsekstakkord deyiladi?
5. Sekstakkordning pastida uchtovushlikning qaysi tovushi joylashgan? Kvartsekstakkordda-chi?
6. Pastki tovushdan hisoblaganda:
  - a) major sekstakkordi;
  - b) minor sekstakkordi?
  - d) major kvartsekstakkordi;
  - e) minor kvartsekstakkordi qanday intervallardan tuziladi?
7. Sekstakkordning qaysi tovushlari orasida seksta, qaysilari orasida tertsiya intervali hosil bo'ladi?
8. Kvartsekstakkordning qaysi tovushlari orasi kvarta, qaysilarining orasi esa seksta intervalini hosil qiladi?
9. Pastki tovushdan o'rta tovushgacha, o'rta tovushdan yuqori tovushgacha hisoblaganda major va minor sekstakkordlari qanday intervallardan tashkil topadi? Major va minor kvartsekstakkordlari-chi?
10. Sekstakkord va kvartsekstakkord qaysi raqamlar bilan belgilanadi?

## Yozma mashq va vazifalar

1. Quyidagi tovushlardan major va minor uchtovushliklari tuzing va ularning aylanmalarini hosil qiling: *do, lya, re, mi♭, fa♯, si♭, sol♯*.

2. Quyidagi tovushlardan major va minor sekstakkordlari va kvartsekstakkordlari tuzing: *do, do♯, do♭, re, re♯, re♭, mi, mi♯, mi♭...* va h.k.

3. 2-vazifada ko'rsatilgan tovushlarning har biridan:


a) major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklar;

b) major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan sekstakkordlar;

d) major, minor, orttirilgan va kamaytirilgan kvartsekstakkordlar tuzing.

E s l a t m a: Masalan do tovushida:

|  |                 |                |                     |
|--|-----------------|----------------|---------------------|
|  | uchtovushliklar | sekstakkordlar | kvartsekstakkordlar |
|--|-----------------|----------------|---------------------|



The image shows a single musical staff with a treble clef. It contains 12 groups of notes, each representing a different triad or chord built on the 'do' note. The groups are: 1) do, re, mi (major triad); 2) do, re, mi♭ (minor triad); 3) do, re♯, mi (augmented triad); 4) do, re♭, mi (diminished triad); 5) do, re, mi, fa (quart chord); 6) do, re, mi, fa♯ (quart chord); 7) do, re, mi, fa♭ (quart chord); 8) do, re, mi, sol (quart chord); 9) do, re, mi, sol♯ (quart chord); 10) do, re, mi, sol♭ (quart chord); 11) do, re, mi, sol, la (quint chord); 12) do, re, mi, sol, la♭ (quint chord).

## Og'zaki mashqlar

1. Quyidagi tovushlardan major va minor uchtovushliklari tuzing va ularning aylanmalarini hosil qiling: *do, re, mi, fa, sol, lya, si*.

2. Shu tovushlarning o'zidan major va minor sekstakkordlari va kvartsekstakkordlari tuzing.

3. Shu tovushlarning o'zidan orttirilgan va kamaytirilgan sekstakkordlar va kvartsekstakkordlar tuzing.

4. Quyidagi tovushlardan sekstakkord va kvartsekstakkordlarning barcha turini tuzing: *do, re, sol, fa♯, si♭, lya, sol♯, mi, do♯, fa, lya♭, re♭, si*.

E s l a t m a: Masalan: mi tovushidan sekstakkordlarning tuzilishi:

major sekstakkordi: *mi - sol - do*;

minor sekstakkordi: *mi - sol♯ - do♯*;

kamaytirilgan sekstakkord: *mi - sol - do?*;

orttirilgan sekstakkord: *mi - sol♯ - do*.

5. Quyidagi akkordlarni aniqlang:

a)



The image shows two musical staves with a treble clef. The first staff contains six chords: 1) do, re, mi (major); 2) do, re, mi♭ (minor); 3) do, re, mi, fa (quart); 4) do, re, mi, fa♯ (quart); 5) do, re, mi, sol (quart); 6) do, re, mi, sol♯ (quart). The second staff contains six chords: 1) do, re, mi, sol, la (quint); 2) do, re, mi, sol, la♭ (quint); 3) do, re, mi, sol, la, si (sext); 4) do, re, mi, sol, la, si♭ (sext); 5) do, re, mi, sol, la, si♯ (sext); 6) do, re, mi, sol, la, si♭, do (sept).

b)




6. Quyidagi akkordlarda oq notalar bilan uchtovushlikning qaysi tovushi (asosiy tovush, tertsiya, kvinta) belgilanganligini aniqlang:



*Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. 120 betdagi № 4 vazifada berilgan uchtovushliklarning aylanmalarini, sekstakkordlari va kvartsekkordlarini chaling.

2. Quyidagi tovushlardan major va minor uchtovushliklari tuzing va ularning aylanmalarini hosil qiling:



3. Quyidagi tovushlarning har biridan uchtovushlik sekstakkord va kvartsekkordlarning to'rtta turini tuzib chaling: *do, do#, do♭, re, re#, re♭, mi, mi#, mi♭* ... va h.k.

4. Quyidagi tovushlardan major va minor sekstakkordlari va kvartsekkordlarini tuzib chaling:



### 3. Major va minorning asosiy uchtovushliklari

#### *Takrorlash uchun savollar*

1. Major va minorning qaysi uchtovushliklari asosiy uchtovushliklar hisoblanadi?
2. Major va minorning asosiy uchtovushliklari qaysi pog'onalardan tuziladi? Ular qanday nomlanadilar?
3. Ladning qaysi uchtovushligiga tonika uchtovushligi deyiladi?
4. Qaysi uchtovushlikga subdominanta, qaysisiga dominanta uchtovushligi deyiladi?
5. a) tabiiy majorda;  
b) tabiiy minorda;  
d) garmonik minorda;
- e) garmonik majorda asosiy uchtovushliklarning tuzilishi qanday bo'ladi?
6. Tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklari qisqacha qanday yoziladi?
7. Asosiy uchtovushliklarning qaysi biri turg'un hisoblanadi?
8. Asosiy uchtovushliklarning qaysilari noturg'un hisoblanadi?

#### *Yozma mashq va vazifalar*

1. Tabiiy major va garmonik minorning barcha diyezli va bemolli tonalliklarida asosiy uchtovushliklar (T – tonika, S – subdominanta, D – dominanta)ni yozing:


E s l a t m a: Tonallikning alteratsiya belgilarini kalit yoniga emas, balki notalar oldiga qo'ying, masalan:



2. Tabiiy major va garmonik minorning quyidagi nomdosh tonalliklarida tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklarini yozing:

*C-dur, D-dur, B-dur, G-dur, E-dur, Fis-dur, As-dur, G-dur,  
c-moll, d-moll, b-moll, h-moll, e-moll, fis-moll, as-moll, g-moll.*


3. Quyidagi uchtovushliklar qaysi major tonalliklarida tonika, dominanta va subdominanta bo'lishini aniqlang va belgilang:



T – C-dur  
S – G-dur  
D – F-dur



4. Quyidagi uchtovushliklar garmonik minorning qaysi tonalliklarida tonika, subdominanta bo'lishini aniqlang va belgilang:



t – a-moll  
s – e-moll

5. Quyidagi uchtovushliklar garmonik minorning qaysi tonalliklarida dominanta uchtovushligi bo'lishini aniqlang va belgilang:



6. Tabiiy va garmonik majorning barcha tonalliklarida subdominanta uchtovushligini quyidagi tartibda yozing:

*C-dur, G-dur, F-dur, D-dur, B-dur ... va h.k.*

7. № 4 mashqda berilgan uchtovushliklar garmonik majorning qaysi tonalliklarida subdominanta uchtovushligi bo'lishini aniqlang va belgilang.

### *Og'zaki mashqlar*

1. Asosiy uchtovushliklarni quyidagi tonalliklarda tuzing: *Do major* (tabiiy), *lya minor* (garmonik).

2. Tabiiy major va tabiiy minorning quyidagi tonalliklarida tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklarining tovushlarini ayting:

|            |            |            |            |
|------------|------------|------------|------------|
| Sol major, | mi minor,  | Fa major,  | re minor,  |
| Re major,  | si minor,  | Re major,  | si minor,  |
| Lya major, | fa minor,  | Sol major, | mi minor,  |
| Fa major,  | re minor,  | Si major,  | sol minor, |
| Si major,  | sol minor, | Do major,  | lya minor. |

3. Tabiiy major va tabiiy minorning quyidagi nomdosh tonalliklarida tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklarining tovushlarini ayting:

C-dur, c-moll, E-dur, e-moll,  
F-dur, f-moll, H-dur, h-moll,  
D-dur, d-moll, Es-dur, es-moll,

B-dur, b-moll, Fis-dur, fis-moll,  
G-dur, g-moll, As-dur, as-moll.


4. Quyidagi uchtovushliklar qaysi major tonalliklarida tonika, subdominant, dominant uchovushliklari bo'ladi:



5. Garmonik minorning qaysi tonalliklarida quyidagi uchtovushliklar tonika, subdominant bo'ladi:



6. Quyidagi uchtovushliklar garmonik minorning qaysi tonalliklarida dominant uchovushligi bo'ladi:



7. Qaysi major va minor tonalliklarida quyidagi tovushlar tonika uchovushligining asosiy tovushi (primasi) bo'ladi:

*d, es, g, gis, cis.*

8. Yuqoridagi tovushlar tabiiy major va garmonik minorning qaysi tonalliklarida a) tonika uchovushligining tertsiyasi; b) tonika uchovushligining kvintasi bo'ladi?

9. Qaysi major va minor tonalliklarida quyidagi tovushlar subdominant uchovushligining asosiy tovushi (primasi) bo'ladi:

*a, b, cis, es, h.*

10. Yuqoridagi tovushlar tabiiy major va garmonik minorning qaysi tonalliklarida a) subdominant uchovushligining tertsiyasi; b) subdominant uchovushligining kvintasi bo'ladi?

11. Qaysi major va minor tonalliklarida quyidagi tovushlar dominant uchovushligining asosiy tovushi (primasi) bo'ladi:

*c, f, g, d.*

12. Yuqoridagi tovushlar tabiiy major va garmonik minorning qaysi tonalliklarida a) dominanta uchtovushligining tertsiyasi; b) dominanta uchtovushligining kvintasi bo'ladi?

*Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. Major va minorning turlicha tonalliklarida asosiy uchtovushliklarni (tonika, subdominant, dominant) chaling: a) tabiiy majorda; b) garmonik minorda; d) garmonik majorda; e) tabiiy major va garmonik minorning nomdosh tonalliklarida.

**Asosiy uchtovushliklarning aylanmalari**

*Yozma mashqlar*

1. Barcha major va minor tonalliklarida quyidagi akkordlarni yozing:
  - a) tonika uchtovushligi, uning sekstakkordi va kvartsekstakkordi (T, T6, T64);
  - b) subdominant uchtovushligi, uning sekstakkordi va kvartsekstakkordi (S, S6, S64);
  - d) dominant uchtovushligi, uning sekstakkordi va kvartsekstakkordi (D, D6, D64).

E s l a t m a: Tonallikning alteratsiya belgilarini kalit yoniga emas, balki notalar oldiga qo'ying, masalan:

|        |    |     |          |    |     |        |    |     |
|--------|----|-----|----------|----|-----|--------|----|-----|
| Es-dur |    |     | cis-moll |    |     | b-moll |    |     |
|        |    |     |          |    |     |        |    |     |
| T      | T6 | T64 | S        | S6 | S64 | D      | D6 | D64 |

2. Tabiiy major va garmonik minorning turlicha tonalliklarida akkordlarning quyidagi ketma-ketligini yozing:

- |                  |                                     |
|------------------|-------------------------------------|
| T – D6 – T;      | T – T6 – S – S6 – D – D6 – T;       |
| T – S64 – T;     | T – S6 – D6 – T – S64 – T;          |
| T6 – S – T6;     | T – D64 – T6 – S – D6 – T;          |
| S6 – T64 – D;    | T – S6 – T64 – S – T6 – D64 – T;    |
| T – D64 – T6;    | T – T6 – S6 – D – D6 – T;           |
| S6 – D – D6 – T; | T – D64 – T6 – S – S6 – D – D6 – T. |

E s l a t m a: Har bir misolni bir necha major va minor tonalliklarida yozish lozim, xususan:

- a) parallel tonalliklarda, masalan: D, h, As, f, H, gis va h. k.
- b) nomdosh tonalliklarda, masalan: G, g, Es, es va h. k.
- d) tonikalari bir-biridan xromatik yarim ton oralig'ida joylashgan tonalliklar, masalan: C, Ces, Cis, a, as, ais, D, Des, f, fis va h. k.



Alteratsiya belgilarini kalit yoniga emas, balki notalar oldiga qo'ying. Masalan: T – S6 – D – D6 – T akkordlar ketma-ketligi E-dur tonalligida quyidagicha yoziladi.



3. Yuqoridagi vazifani garmonik majorda ham bajaring.

4. Quyidagi tonalliklarda dominanta va subdominant uchtovushliklarini noturg'un tovushlarni yechilish yo'li bilan tonika akkordiga qo'shing: C-dur, G-dur, F-dur, a-moll, e-moll, d-moll, Es-dur, g'-dur, As-dur, fis-moll, g-moll, gis-moll.

E s l a t m a: Akkordning turg'un tovushlarini oq notalar bilan, noturg'unlarini esa qora notalar bilan yozing. Masalan: *Do major* tonalligida dominant va subdominant uchtovushliklarini tonika akkordiga qo'shilishini quyidagicha yozish lozim:



5. Quyidagi noturg'un akkordlarni ko'rsatilgan tonalliklarda, noturg'un tovushlarni yechilish yo'li bilan, tonika akkordiga qo'shing: C-dur, D-dur, a-moll, g-moll, As-dur, E-dur, dis-moll, f-moll, Ges-dur, h-moll.


- dominant sekstakkordi (D6);
- dominant kvartsekstakkordi (D64);
- subdominant sekstakkordi (S6);
- subdominant kvartsekstakkordi (S64).


### Og'zaki mashqlar

1. Major va minorning quyidagi tonalliklarida tonika, subdominant va dominantaning uchtovushliklari, sekstakkordlari va kvartsekstakkordlari tovushlarini ayting:

|            |            |            |            |
|------------|------------|------------|------------|
| Do major,  | do minor,  | Si major,  | si minor,  |
| Sol major, | sol minor, | Fa major,  | fa minor,  |
| Re major,  | re minor,  | Mi major,  | mi minor,  |
| Lya major, | lya minor, | Lya major, | lya minor. |

2. Quyida berilgan sekstakkordlar va kvartsekstakkordlar major va minorning qaysi tonalliklarida tonikaga, subdominantaga va dominantaga tegishli bo'lishini aniqlang:





*Fortepianoda bajariladigan mashqlar*

1. Tabiiy major va garmonik minorning quyidagi tonalliklarida akkordlarning quyidagi ketma-ketligini chaling:

|             |           |                       |
|-------------|-----------|-----------------------|
| T-T6-T64-T; | T-S6-D;   | T-S6-D-D6-T;          |
| S-S6-S64-S; | D-T64-D;  | T-T6-S-S6-D-D6-T;     |
| D-D6-D64-D; | T-D64-T6; | T-D64-T6-D6-T-S64-T;  |
| T-D6-T;     | T-S64-T;  | T-T6-S-T64-S6-D-D6-T. |

E s l a t m a: 1. Akkordlarning bu ketma-ketliklarini *C-dur* tonalligidagi quyidagi misol kabi chaling: T-T6-S6-D6-T.



2. Har bir misolni bir necha major va minor tonalliklarida chalish lozim, xususan:

- a) parallel tonalliklarda, masalan: *D, h, As, f, H, gis* va *h.k.*
- b) nomdosh tonalliklarda, masalan: *G, g, Es, es* va *h.k.*
- v) tonikalari bir-biridan xromatik yarim ton oraliqda joylashgan tonalliklar, masalan: *C, Ces, Cis, a, as, ais, D, Des, f, fis* va *h.k.*

2. Yuqoridagi akkordlarni arpedjio usulida (ya'ni akkord tovushlarini ketma-ket, birini izidan boshqasini) chaling;

- a) yuqorilama to'g'ri harakat bilan (pastdan yuqoriga);
- b) pastlama to'g'ri harakat bilan (yuqoridan pastga);
- d) bir akkordni yuqorilama harakat, navbatdgisini pastlama harakat bilan (yuqorilama harakatni pastlama harakat bilan almashtirgan holda);
- e) «siniq» akkordlar shaklida.

E s l a t m a: Masalan, T-D64-T6-T akkordlari ketma-ketligini *C-dur* tonalligida quyidagicha chalish lozim:

- a) yuqorilama harakat bilan:
- b) pastlama harakat bilan:



- d) yuqorilama harakatni pastlama harakat bilan almashtirgan holda va aksincha:



g) «siniq» akkordlar shaklida:



3. Quyida berilgan baslar va raqamlar bo'yicha akkordlar tuzing:

1. 2. 3. 4.

64 6 6 64

5. 6. 7. 8.

64 6 6 6 64

9. 10. 11.

64 6 6 6 6

12. 13.

6 6 64 6 64 6

14. 15.

6 64 64 6 6 6 6 6 6

16. 17.

64 6 6 64 6

18. 19.

64 6 64 6 64 6 6 6

20.

6 6 6 6 6 6 64

21. 22.

6 64 6 6 64 6 64

Detailed description: This block contains 22 numbered musical exercises for bass clef. Each exercise is presented on a single staff with a key signature of one flat (B-flat). The exercises are numbered 1 through 22. Each exercise consists of a sequence of notes and rests, with a circled note above the staff indicating the chord to be played. Below the staff, a sequence of numbers (6 and 64) indicates the fingering for the notes. The exercises are arranged in a grid-like fashion, with 4 exercises per row and 5 rows in total. The first row contains exercises 1-4, the second row 5-8, the third row 9-11, the fourth row 12-13, the fifth row 14-15, the sixth row 16-17, the seventh row 18-19, the eighth row 20, and the ninth row 21-22.

23.

5. Yuqoridagi vazifada keltirilgan misollarni:  
 a) 4, 5, 6 ta alteratsiya belgili tonalliklarga;  
 b) berilgan tonallikdan yarim ton oraliqda joylashgan tonalliklarga transpozitsiya qilib chaling, masalan: *G-dur*, *Ges-dur*, *a-moll*, *ais-moll*... va h.k.
6. Quyidagi misollardagi akkordlarni aniqlang va chaling:

a)

b)

7. Yuqoridagi vazifada keltirilgan misollarni boshqa tonalliklarga transpozitsiya qilib, chaling.

#### 4. Major va minorning yondosh uchtovushliklari

##### *Takrorlash uchun savollar*

1. Major va minorning qaysi uchtovushliklari yondosh uchtovushliklar hisoblanadi?
2. Tabiiy majorning pog'onalarida qanday uchtovushliklarni tuzish mumkin?
3. Tabiiy minorda-chi?
4. Garmonik minorda-chi?
5. Garmonik majorda-chi?

##### *Yozma mashq va vazifalar*

1. Barcha major tonalliklarida I, III, IV pog'onadagi minor uchtovushliklarini yozing.

2. Barcha minor tonalliklarida III, VI va VII pog'onadagi major uchtovushliklarini yozing.


3. Garmonik minorning barcha tonalliklarida II va VII pog'onadagi kamaytirilgan uchtovushliklarni yozing.


4. Garmonik minorning barcha tonalliklarida III pog'onadagi orttirilgan uchtovushliklarni yozing.

5. Garmonik majorning barcha tonalliklarida II va VII pog'onadagi kamaytirilgan uchtovushliklarni yozing.

6. Garmonik majorning barcha tonalliklarida VI pog'onadagi orttirilgan uchtovushliklarni yozing.

7. Quyidagi major uchtovushliklari qaysi 3 ta major va 4 ta minor tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:




Eslatma: Bu va bundan keyingi vazifalarda berilgan akkordlarning tonalligini aniqlash uchun major va minorning ikki turini: ya'ni, tabiiy va garmonik turini oling. Masalan,  uchtovushligi quyidagi tonalliklarga tegishlidir:

C G F a f e d  
I IV V III t. V VI VII t.

8. Quyidagi minor uchtovushliklari qaysi 4 ta major va 3 ta minor tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:



Eslatma: Masalan,  uchtovushligi quyidagi tonalliklarga tegishlidir:

C g f B As Es g  
I IV V t. II III VI IV g.


9. Quyidagi kamaytirilgan uchtovushliklar qaysi major va minor tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:



10. Quyidagi orttirilgan uchtovushliklar qaysi major va minor tonalliklariga va ularning qaysi pog'onalariga tegishli ekanligini aniqlang:



